

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

FARG‘ONA VILOYATI XALQ TA‘LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI

MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA‘LIM KAFEDRASI

**“Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar nutuini o‘stirishda
sinfdan tashqari o‘qish darslarining ahamiyati”**

(boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik ko‘rsatma)



Farg‘ona – 2016 yil

Ushbu metodik ko'rsatma boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qishning ahamiyati, uning maqsad va vazifalari hamda o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha dolzarbli masalalariga to'talib o'tilgan. Mualliflar tomonidan berilgan taklif va metodlar boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga metodik material sifatida xizmat qiladi.

Muallif: U.Q.Maqsudov – Farg‘ona viloyati XTXQTMOI maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrasida katta o‘qituvchisi
D.Umarova – Marg‘ilon shahar XTMFTTEB tasarrufidagi 2-IDUM boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Taqrizchilar: I.I.To‘raqulov – Farg‘ona viloyati XTXQTMOI maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi
Z.Yo‘ldasheva – Marg‘ilon shahar XTMFMTTEB tasarrufidagi 2-DIUM oliy toifali “Ona til va adabiyot” fani o‘qituvchisi

FVXTXQTMOI Ilmiy Kengashining 2016 yil, _____.dagi -sonli bayonnoma qarori bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

Kirish

Ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, har tomonlama sog'lom bo'lgan barkamol shaxsni shakllantirish, jahon talablari darajasiga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib berish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov "Sog'lom avlod - xalqimiz kelajagi" ma'ruzasida: "Faqat jismoniy jihatdan baquvvat bo'lgan odamni tarbiyalash unchalik qiyinmas. Ammo ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan kamol toptirish g'oyat murakkab vazifa. Ayniqsa, bugungi kunda mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olgan hozirgi nozik, qaltis sharoitda, tahlikali zamonda bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega"¹.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlarni isloh qilishda O'zbekiston Prezidenti va Oliy Majlis qabul qilgan qaror, qonun va farmonlar dastur amal bo'lib xizmat qilmoqda. Bunda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "Umumiy o'rta ta'limning uzviylashtirilgan davlat ta'lim standartlari", "Maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi", "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi" kabi hujjatlar muhim ahamiyatga ega.

"Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi 1998-yil 13-maydagi 203-sonli qarorining bajarilishini ta'minlash, ta'lim mazmuniga islohotlarning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda zarur tuzatishlar kiritish, uning sifati va samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi maxsus qaror qabul qildi. Qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish yuzasidan Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti ishlab chiqildi, bu standart o'quvchilarning umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab berdi. Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qish darslarini to'g'ri

¹ Karimov I. A. "Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot provard maqsadimiz. Tom 6. T.: O'zbekiston, 2000, 95-bet)

tashkil etish orqali ularning dunyoqarashi, ma'naviy ongining ortib borishiga xizmat qiladi. Bu esa bugungi kun boshlang'ich ta'lim oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Sinfdan tashqari o'qishning maqsad va vazifalari

Maktab o'quvchini o'qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, ma'lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o'qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o'qish (STO') tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, o'quvchini ko'p narsani bilishga havasini orttiradi.

STO'ning maqsadi o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus STO' darslari tashkil etilgan. Bunday darslar 1-2-sinfda haftada 1 marta, 3-4-sinfda 2 haftada 1 marta o'tkazilib kelindi. Hozirgi dasturga ko'ra, bunday darslar 1-4-sinflarda 2 haftada bir marta o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17-20 daqiqasi ajratiladi.

Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir.

Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lmagan mualliflarning ham kitoblari muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundarijasi va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarning asosiy vazifasi o‘quvchida badiiy kitoblarni o‘qishga havas uyg‘otish, o‘qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o‘rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi.

Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish, ularning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o‘qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi.

STO‘ sinfdan o‘qish bilan uzviy bog‘liq ravishda uyushtiriladi. Sinfdan o‘qish STO‘ uchun zarur bo‘lgan o‘qish malakalarini shakllantiradi, o‘qigan asarni tushunishga o‘rgatadi, lug‘atni boyitadi. STO‘ qiziqarli va o‘ziga jalb etadigan faoliyat bo‘lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfdan o‘qish – hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o‘qish esa hayotning o‘zidir. Hozirgi paytda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sinfdan tashqari o‘qishga mo‘ljallangan “Kitobim-oftobim” nomli qo‘llanmalar ham chop etilgan.

Sinfdan tashqari o‘qish bosqichlari

STO‘ darslari o‘quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o‘qish malakalarini shakllantiradi. Mustaqil o‘qish malakasini shakllantirish 3-bosqichga bo‘linadi:

1. Tayyorlov bosqichi. Bu 1-sinfning savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi. Unga darsning bir qismi – 17-20 daqiqasi ajratilgani uchun “STO‘ ma‘lumoti” deb yuritiladi.

2. Boshlang‘ich bosqich. Bu 1-sinfning 2-yarim yilligiga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi.

3. Asosiy bosqich. Bu bosqich 2-4-sinflarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘quvchilarning o‘qish malakalarni mustahkamlanadi. Bunda o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qiganlari baholanadi.

STO‘ bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari o‘quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o‘qituvchi o‘qib bersa, o‘qilganlar yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o‘tkazilsa, boshlang‘ich bosqichda butun sinf o‘quvchilari bir xil kitob bilan

ta'minlanadi, barcha o'quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar ko'rgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichda o'qishga topshirilishi, albomlar tayyorlanishi, kinofilm va videofilmlardan parchalar ko'rsatilishi, musiqiy daqiqalar o'tkazilish hamda asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdirilishi ham mumkin. Bu jarayonda kitobni saqlash maqsadida uni yamash, o'rash o'rgatiladi, *"Ertaklar bayrami"*, *"Ifodali o'qish tanlovi"*, *"Kitobxonlar ustaxonasi"* kabi tadbirlar o'tkaziladi.

Asosiy bosqich yakunida kichik yoshdagi o'quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo'lgan yaxshi o'qish ko'nikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, ularning kitob hamda mustaqil o'qishni yaxshi ko'rishlariga erishish juda muhimdir.

Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlash tamoyillari

Metodikaning vazifalaridan biri STO' uchun kitoblar tanlash, o'qiladigan adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qilish, yillik o'quv rejasi va dars tuzilishi namunalarini ishlab chiqishdir.

Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

- 1. Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko'zda tutiladi.**
- 2. Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xilma-xilligi e'tiborga olinadi.** Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, maqollarni o'qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.
- 3. Kitobning o'quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi.**
- 4. Kitob tanlashda o'quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil o'qishi hisobga olinadi.**
- 5. Kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi.** Kitobni to'g'ri tanlash sinfdan tashqari o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim shartidir.

Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlik qilish shakllari

STO'ga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o'qish darslaridir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. STO' darslarida

o'quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi; faol kitobxonga xos ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo'ladi. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchining ijodi hisoblanadi; darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish oson kechadi.

Shularga qaramay, STO' darslari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishi uchun ma'lum talablarga bo'ysunadi. Ular quyidagilardir:

1. Har bir darsda o'quvchilar o'qigan kitoblar (asarlar) hisobga olinadi. Ular o'qigan va o'qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko'rsatadilar, ikki-uch o'quvchi o'zlari o'qigan kitob haqida gapirib beradi, darsda o'zaro fikr almashish holati yaratiladi (bu holat darsdan tashqari vaqtda ham davom etishi mumkin).

2. Har bir darsda o'qish uchun yangi kitob (asar)lar tavsiya qilinadi. Tavsiya qilish shakllari turlicha bo'lib, ular fikr almashuv, kitobni ko'rsatish, sinfdan ko'rgazma tashkil etish, o'quvchilarni qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan kitobdan biror parchani o'qib berish, rasmlarni ko'rsatish yoki namoyish etishdan iborat bo'lishi mumkin.

3. Har bir darsda o'quvchilarga asarni yaxlit holda o'qitish mumkin. Agar asar hajmi kattaroq bo'lsa, bu ish ikki-uch dars davomida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar o'zlari o'qigan kitobdan biror parchani ovoz chiqarib o'qib berishlari mumkin. Bu jarayonda ichda o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalaniladi.

1. Kitobni targ'ib qilish. STO'ga tavsiya qilinadigan asarlar ro'yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo'yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilab turiladi, to'ldiriladi, ko'rgazmalar tashkil qilinadi. O'qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.

2. Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv. O'quvchilarning o'qigan kitoblari yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o'qilgan kitoblar hisobga olinadi.

3. STO‘ yuzasidan ommaviy ishlar. Adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyushtiriladi, ular uchun maxsus tayyorgarlik ko‘riladi.

O‘quvchilarning o‘qigan kitoblari og‘zaki tarzda ham hisobga olinadi: ular o‘qiganlari yuzasidan sinfdan tashqari o‘qish va sinfda o‘qish darslarida, yakka tartibdagi suhbatlarda gapirib beradilar.

Maktab bolani o‘qish malakasi bilan qurollantiradi, shuning bilan birga, kitobni mustaqil o‘qiy oladigan, uni tushunadigan, muntazam o‘qib borishni talab qiladigan, ma’lum bir mavzuga doir kitoblarni tanlay oladigan, faqat qiziqarli kitoblarnigina emas, balki gazeta va jurnallarni ham o‘qiy oladigan kitobxonni tarbiyalashi lozim.

Sinfdan tashqari o‘qish tarbiyaning ajoyib quroli sifatida xizmat qiladi, o‘qishga, ko‘p narsani bilishga havasni orttiradi.

Mavjud dasturda sinfdan tashqari o‘qish sohasida bolalar egallashi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar belgilab berilgan: bolalar yozuvchilarining yaxshi asarlarini bilish, mustaqil o‘qigan kitoblarini to‘g‘ri baholay olish, kerakli materialni tanlay bilish, o‘qish kundaligi yurita olish va hokazo. Sinfdan tashqari o‘qish dasturi maktab va kutubxona tomonidan tashkil etilgan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, bolalar bilan individual ishlash orqali bajariladi. 1959-yildan boshlab sinfdan tashqari o‘qishga rahbarlikning yangi formasi — maxsus darslar uyushtirila boshlandi. Bu darslar I—II sinflarda haftada bir marta, III sinfda esa ikki haftada bir marta o‘tkaziladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar qiziquvchanliklari bilan boshqalardan ajralib turadilar: sayohatlar haqida, hayvonlar, umuman tabiat haqida, mashinalar, qushlar haqida o‘qishni, ayniqsa, ertak o‘qishni sevadilar. Ular qo‘rqmas sayyohlar, tekshiruvchilar, qahramon bolalar haqidagi kitoblarni yuqori baholaydilar.

Mamlakatimizda bolalar adabiyoti adabiyotning mustaqil sohasi deb qaraladi. Quddus Muhammadiy, Po‘lat Mo‘min, Zafar Diyor, Shukur Sa’dulla, Qudrat Hikmat kabi faxriy bolalar adabiyoti namoyondalari, S.Y.Marshak, S. V.

Mixalkov, V. Bianki kabi rus bolalar shoir va yozuvchilari bolalarning sevimli yozuvchilaridir. Oybek, H.Olimjon, G'.G'ulom, V. V. Mayakovskiylar ham bolalar uchun kitoblar yozganlar. Sinfdan tashqari o'qish uchun bolalarga maxsus yozilmagan, ammo ularning saviyasiga mos asarlar ham tavsiya etiladi. Mirmuhsin, R.Fayziy, H.Shams kabi yozuvchilarning asarlari shular jumlasidandir.

Metodikaning vazifalaridan biri sinfdan tashqari o'qish uchun kitoblar tanlash va tavsiya qilishdir. Mavjud dasturlarda sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etiladigan kitoblar ro'yxati berilmagan. Bunday ro'yxatni har yili o'qitunchi o'zi tuzadi.

Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda quyidagilarga rioya qilinadi:

1. Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko'zda tutiladi. Bolalarga xalqning revolyutsion kurashi haqidagi, mehnatkashlarni ezuvchilar zulmidan ozod qilgan qahramonlar, Vatan himoyasi, xalqlar do'stligi, xalqning qahramonona mehnati haqidagi, turmushda, oilada, maktabda o'rtoqlari bilan o'zaro munosabatda ro'y beradigan axloqiy muammolar haqidagi, tabiatni sevish va uni himoya qilish haqidagi kitoblar tavsiya etiladi.

2. O'qish uchun tavsiya etiladigan kitoblar janri va mavzusi jihatidan xilma-xil(proza va she'r, badiiy va ilmiy-ommabop adabiyot, hozirgi kun va o'tmish haqidagi kitoblar, klassik yozuvchilar va hozirgi mualliflarning asarlari; folklor - ertak, topishmoq; jurnal va gazeta) bo'lishi zarur.

3. Kitob tanlashda bolalarning yoshi va saviyasiga muvofiqlik printsipligina rioya qilish. Masalan, I sinfdan hikoya, ertaklar, Vatan haqidagi; revolyutsiya uchun kurashganlar, bolalar hayoti, o'simliklar, hayvonlar haqidagi bolalarbop asarlar tavsiya etiladi. Q. Muhammadiy, I. Muslim, Q. Hikmat, P. Mo'min, S. Mixalkov, A. Rahmat, L. N. Tolstoy, K. Ushinskiy, H. Olimjon va boshqalarning asarlari shular jumlasidandir.

II sinfda mavzutika kengaytiriladi va unga anqlik kiritiladi: pioner-qahramonlar, chet eldagi bolalar hayoti, Ulug‘ Vatan urushi, zavod, fabrika va kolxozdagi mehnat haqidagi, turli xalqlar ertaklari, ilmiy-ommabop kitoblar ham o‘qishga tavsiya etiladi. O‘quvchilar G.G‘ulom, Oybek, Shukrullo, A.Kononov, Hamza, N.Krupskaya, Z.Diyor, Y.Shomansur, H.Nazir, Y.Shukurov, E.Vohidov, S.Abduqahhor, I.Krilov kabi ko‘pgina mualliflar bilan tanishadilar. III sinfda yuqorida ko‘rsatilgan mavzuga ilmiy-hujjatli, ilmiy-ommabop adabiyotlar qo‘shiladi. O‘quvchilar S.Ayniy, A.Umariy, A.Qahhor, M.Shayxzoda, T.Yo‘ldosh, Y.Shukurov, A.Chexov, A.Gaydar, E.Jumanbulbul, V.Bonch-Bruevich kabi mualliflarning asarlarini o‘qiydilar.

4. Kitob tanlashda o‘quvchilarning shaxsiy qiziqishi mustaqil o‘qishini hisobga olish. O‘quvchilarda mustaqillikni tarbiyalash, o‘zi uchun zarur bo‘lgan kitobni o‘zi tanlay oladigan kitobxonlarni tarbiyalash muhimdir.

Sinfdan tashqari o‘qish sinfda o‘qish bilan uzviy bog‘liq ravishda uyushtiriladi. Sinfda o‘qish sinfdan tashqari o‘qish uchun zarur bo‘lgan o‘qish malakalarini shakllantiradi, o‘qigan asarini tushunishga o‘rgatadi, lug‘atini boyitadi. Sinfdan tashqari o‘qish, o‘z navbatida, qiziqarli, o‘ziga jalb etadigan faoliyat bo‘lib, umuman, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o‘qish — hayotga tayyorlash vositasi sinfdan tashqari o‘qish esa hayotning o‘zidir. Sinfdan tashqari o‘qishga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o‘qish darslari hisoblanadi. Sinfdan tashqari o‘qish darsining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, sinfda o‘qish darslaridan printsipial farq qiladi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslari erkin dars hisoblanadi; bunday maxsus darslarda bolalarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodi rivojlanadi; faol kitobxonlar uchun zarur ko‘nikma va malakalar shakllanadi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo‘ladi. Har bir dars o‘qituvchi bilan o‘quvchining ijodi hisoblanadi; darsda qanchalik xilma-

xillikka, hayotiylikka yondoshilsa, o'qituvchi o'z sinfida shunchalik katta muvaffaqiyatga erishadi. Shularga qaramay, sinfdan tashqari o'qish darslari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun ma'lum talablarga bo'ysunadi. Har bir darsda bolalar o'qigan kitoblar hisobga olinadi. Ular o'qigan yoki o'qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko'rsatadilar, ikki-uch o'quvchi o'qigan kitoblari haqida qisqacha gapirib beradi. O'qituvchi darsda o'zaro fikr almashish holati yaratadi, darsdan tashqari vaqtda ham fikr almashish davom etishi mumkin.

Har bir darsda yangi kitoblar tavsiya qilinadi. Tavsiya formalari turlicha bo'lib, ular fikr almashuv, kitobni ko'rsatib, to'g'ridan-to'g'ri tavsiya qilish, sinfda kichik mavzulik yoki muallifga tegishli ko'rgazma tashkil etish, o'quvchilarni qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan kitobdan biror parchani o'qib berish, rasm ko'rsatish, film parchasini namoyish qilishdan iborat.

Har bir darsda o'quvchilar hikoya, ertak, she'r o'qiydilar; hajmi kichik asarni yaxlit, hajmi katta bo'lsa, ikki-uch dars davomida o'qiydilar, sinfdagi barcha o'quvchilar o'qigan kitobidan biror parchani o'qib beradilar. Ko'proq ovoq chiqarib o'qiydilar, bundan tashqari, darsda ichda o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, insseniroykadan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalaniladi.

Har bir darsda o'qilgan asarni suhbat, ya'ni o'qituvchi savoliga javob berish, erkin hikoyalab tahlil qilish elementi bo'ladi. Erkin hikoya qilish uchun savol umumiy tarzda beriladi: «Senga nimalar juda ham yoqdi?», «Bu kitob haqida sen nimalarni ayta olasan?» kabi. Tahlil jarayonida bolalarni milliy istiqloq g'oyasi ruhida tarbiyalashga tegishli o'rinlarga alohida ahamiyat beriladi.

Har bir darsda ma'lum bir yangi kitobxonlik ko'nikmasi hosil qilinadi: muallif haqida ma'lumot topish, kitob nomiga qarab u nima haqida ekanini bilish, ko'rgazma tuzish, kitob haqida taqriz yozish yoki kitobxon kundaligi yuritish kabi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida an'anaviy o'qish metodlari (qayta hikoyalash, lug'at ishi, suhbat kabi)dan zarur o'rinlardagina foydalanish tavsiya etiladi, lug'at ishi bunday darslarda yordamchi ro'l o'ynaydi: ayrim qiyin so'zlar tushuntiriladi, o'quvchilar diqqati esda saqlab qolish lozim bo'lgan aniq, qulay nutqqa qaratiladi. Barcha qiyin so'zlarni tushuntirish. imkoni bo'lmagani uchun bolalar tegishli bet tagida berilgan ayrim so'zlar izohini o'qishga o'rgatiladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida qayta hikoya qilishning qisqartib qayta hikoyalash, o'quvchiga yoqqan o'rnini qayta hikoyalash (tanlab qayta hikoyalash) turlaridan, inssenirovka qilishdan foydalaniladi. Sinfdan tashqari o'qish qayta hikoyalashning ijodiy formalari bo'lgan o'qilganlarga so'z bilan yoki grafik rasm chizish, applikatsiya, adabiy-muzikali kompozitsiya, rasmlar, portretlar, slayd va taqdimotlardan foydalanishga sharoit yaratadi. O'qilganlar asosida insho, gazetaga maqola yozish kabi ijodiy ishlardan ham foydalanish mumkin.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida s u h b a t o'qilgan kitobni muhokama qilishda ham, yangi kitob tavsiya qilishda ham qo'llanadi; suhbat elementlari o'qilgan asardan asosiy mazmunni ajratish uchun, voqealar izchilligini, bo'lgan vaqti va o'rnini, bog'lanishini belgilashga yordam beradi. Suhbat uchun savol tuzishda o'quvchilarning mustaqilligi, hayotdan, o'qilgan boshqa kitoblardan qo'shimcha javob berishi hisobga olinadi.

Boshqa darslardagi kabi, bunday darslarda ham kirish suhbatlari, umumlashtiruvchi, yakunlovchi suhbatlar bo'ladi. Ko'pgina sinfdan tashqari o'qish darslari umumlashtiruvchi darslar kabi quriladi. Odatda, bunday darslarning qurilishida umumlashtirish elementlari bo'ladi. Metodik vositalarni tanlash, dars qurilishi (asosiy mazmunni ajratish, taqqoslash, xulosalash, qo'shimcha materialni qo'shishni talab qiladigan savollar kabi) umumlashtirishning vazifasini belgilaydi. Umumlashtirishga ko'rgazma ham, albom tuzish ham, rasmlarni tatbiq etish ham yordam beradi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda kitob o'qishda mustaqillikni tarbiyalash hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchi sinfdan tashqari o'qish darsini tashkil qilishda o'quvchilarga beriladigan mustaqil ish va unga barcha o'quvchilarni jalb qilish yo'llarini belgilab oladi. O'quvchilarning mustaqilligini o'stirishga har bir darsda 4—6 o'quvchi o'qigan kitobi haqida gapirib berishi, o'quv yili davomida har bir o'quvchi bir-ikki marta ommaviy chiqishlarda qatnashishi, darsda barcha o'quvchi, hatto yomon o'qiydigan o'quvchi ham o'qishiga (ularni o'rtoqlari oldida noqulay holatda qoldirmaslik uchun asardan biror parchani o'qishga tayyorlash mumkin) erishish suhbatning muhokama xarakterida bo'lishi, savollar o'qilgan asarni baholashga qaratib tuzilishi ham yordam beradi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida qiziqarli mashqlarga alohida o'rin beriladi. Bunday darslarda adabiy viktorina (bir mavzu ustida savol-javob o'yini), eng yaxshi insholar, illyustratsiyalar, topishmoq topish, tanlovlar o'tkazish, topishmoqlar albomini tuzish, tayyorgarliksiz jamoaviy yoki individual ravishda ertak to'qib aytish, o'quvchilar hayoti haqida, yozuvchilarning chuqur ma'noli gap (hikmatli so'z)lari va maqollar, latifalar aytish mumkin. Ba'zan o'qituvchilar bunday darslarda «Hazil minuti», «5 soniya o'ylash uchun», «Topishmoqlarni top», «Bilimdonlar klubi» kabi qiziqarli mashg'ulotlarni doimo o'tkazib turadilar.

Sinfdan tashqari o'qish darslarini o'tkazish rejasini o'quv yilining yarmi yoki butun o'quv yili uchun tuzib, darslar tizimini belgilab olish tavsiya etiladi. Bunday rejalashtirishga, ularning izchil va o'zaro bog'liq bo'lishiga, shuningdek, darslarda ish turlarini taqsimlashga, bolalarga ta'lim-tarbiya berish, bayramlar, ulug' kunlar, fasllarga mos ravishda mavzularni taqsimlashga imkon beradi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining mavzusi dasturda belgilab berilgan bilim, ko'nikma va malaka bilan o'quvchilarni qurollantirishga qarab belgilanadi. Bunday darslar tuzilishini ishlab chiqishda kichik yoshdagi o'quvchilarda mustaqil o'qish malakalarini shakllantirish bosqichlarini

ajratish muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichlar va o'quvchilarning har bir bosqichidagi vazifalarini, sinfdan tashqari o'qish metodikasini metodist olimi N.N.Svetlovskaya ishlab bergan.

Birinchi bosqich - tayyorlov bosqichi bo'lib, I sinfdan o'quv yilining birinchi yarmini o'z ichiga oladi. Bunda hali tom ma'nosi bilan sinfdan tashqari o'qish bo'lmaydi; sinfdan tashqari o'qish uchun 20 minutlik dars qismi ajratiladi, bunda o'qituvchi o'quvchilar saviyasiga mos biror asarni o'qib beradi. O'quvchilar hikoya, ertakni eshitib idrok etishga, o'qilganlarga soddagina baho berishga, mazmun bilan sarlavhaning munosabatini, mosligini aniqlashga o'rgatiladi, ular o'qilganlarni so'z bilan tasvirlaydilar, o'qish gigiyenasining asosiy qoidalari va kitobga qanday munosabatda bo'lish bilan tanishadilar.

Ikkinchi — b o s h l a n g ' i c h bosqich I sinf o'quv yilining ikkinchi yarmini o'z ichiga oladi. Bunda haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darsi ajratiladi. O'qish doirasi kengayadi. Bolalar kitob bilan tanishadilar, muallifning familiyasini, kitob nomini topishga, rasmlarini ko'rishga, o'qishdan oldin kitobning taxminiy mazmunini aniqlashga, o'qilganlarni hikoya qilib berishga va soddagina qilib yozib qo'yishga, muhokama qilish va unga o'z munosabatini bildirishga o'rganadilar. Bu bosqichda bolalar har xil tezlikda, ko'proq bo'g'inlab o'qiydilar, hali erkin o'qiy olmaydilar. Sekin, ifodalilikka rioya qilmay o'qishlaridan o'zlari qoniqmaydilar. Bu bosqichda o'qituvchi har bir o'quvchiga e'tibor bilan individual yondashishi, kichik kitobxon kitobni mustaqil o'qishga o'rgatishi kerak. Boshlang'ich bosqichda sinf uchun umumiy bo'lgan kitob sinfdan tashqari o'qish darsida o'qib beriladi; uyga vazifa har bir o'quvchiga individual yondashgan holda topshiriladi. Darsda o'qish uchun beriladigan vazifalar ham individuallashtiriladi: «bo'sh» o'quvchilar gap qurilishi sodda, notanish so'zlari bo'lmagan kichik bir qismni o'qiydilar. Boshlang'ich bosqichning oxirida o'quvchilarning o'qish malakalari ancha stabillashadi. Bolalar so'zlarni sintetik o'qishga, ayrim o'quvchilar tekis va ifodali o'qishga o'tadilar. O'quvchilar o'rtasidagi individual farq ancha

kamayadi. Bolalarni o'quv ishidagi tajribasi ortadi. Bularning hammasi bolalarni keyingi bosqichga o'tishga imkoniyat yaratadi.

Uchinchi - asosiy bosqich ikki yil (I va II sinflar)ni o'z ichiga oladi. Bu davr ichida bolalarning o'qish malakalari mustahkamlanadi; sinfdan tashqari o'qish haqiqiy mustaqil o'qish, sinfdan tashqari o'qish darslari esa o'quvchilarning mustaqil o'qiganlariga rahbarlik qilishning haqiqiy formasiga aylanadi.

Asosiy bosqichda sinfdan tashqari o'qishga baho qo'yiladi (salbiy baho qo'yish tavsiya etilmaydi). Baho qo'yishda, birinchidan, o'quvchining sinfdan tashqari o'qish dastursi talablarini qanchalik egallagani, ikkinchidan, umumiy sinf ishlariga faol qatnashishi, uchinchidan, mustaqil o'qigan kitoblarining soni va sifati, o'qiganlarini tushunib yetish ko'nikmasi, kitobxonlik bilim doirasi va o'qigan kitoblari yuzasidan muhokama yurita olishi nazarda tutiladi.

Asosiy bosqich oxirida kichik yoshdagi o'quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo'lgan yaxshi o'qish ko'nikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, kitobni va mustaqil o'qishni sevishlari zarur. Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning y o r d a m c h i shakllari ham bo'lib, bular barcha ishlarni izchil uyushtirishni ta'minlaydi, sinfdan tashqari o'qish darslari uchun sharoit yaratadi. Bular:

1. Kitobni targ'ibot qilish. Sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati maktabga va sinfga osib qo'yilib vaqt-vaqti bilan yangilanib, to'ldirilib turiladi. Kutubxona yoki o'qituvchi tomonidan yangi nashr etilgan kitoblar yoki bayram kunlari, shuningdek, ayrim yozuvchilar tavallud kuniga bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilinadi va hokazo. Maktab yoki: sinf devoriy gazetasida o'quvchilarning o'zi o'qigan kitobi haqidagi taqrizi bosiladi, yozuvchi ijodi haqida va biror mavzudagi kitoblar haqida ma'ruza tayyorlanadi. Kitob o'qishga kutubxonachining sinfdagi suhbat, o'qituvchining o'quvchilar bilan shaxsiy suhbat orqali ham tashviq qilinadi.

2. Individual y o r d a m va kundalik kontrol. O'quvchi bilan u o'qiyotgan yoki o'qigan kitobi haqida suhbat, fikr almashish, rasmlarini muhokama qilish,

o‘qigan kitoblari haqida yozganlarini ko‘rib chiqish, o‘qigan kitobi haqidagi insho taqrizini tahlil qilish, uy kutubxonasi bilan tanishish, o‘qishi haqida otasonasi bilan suhbat kabilar.

3. Sinf dan tashqari ommaviy ishlar. Adabiy ertaliklar, viktorinalar, yozuvchilar, jurnalistlar, adabiyot o‘qituvchilari bilan uchrashuv, adabiy ekskursiyalar. Bu ommaviy ishlarni tayyorlashda o‘quvchilarning o‘zlari qatnashadilar (so‘zga tayyorlanadilar, montaj chiqaradilar, ko‘rgazma tashkil qiladilar, mehmonlarni kutib oladilar, turli o‘yinlar uyushtiradilar). Ommaviy ishlarni tayyorlashga yuqori sinf o‘quvchilari ham jalb etiladi, otasonalar taklif qilinadi.

4. Kutubxonaga yozilish. I sinf o‘quvchilari o‘qish malakalari egallashlariga qarab o‘qituvchining ruxsati bilan kutubxonaga yoziladilar. O‘quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab barcha o‘quvchilar kutubxonaga a‘zo bo‘lishlari mumkin. O‘qituvchi har oyda bir-ikki marta o‘quvchilar kartotekasini tekshirib, kutubxonachi bilan suhbatlashadi.

5. O‘quvchilarning o‘qiganlarini hisobga olish. Maktablarda I sinfdan boshlab kitobxonlik kundaligidan foydalaniladi. O‘quv yili oxirida:

I sinf o‘quvchilari kundalikka kitob nomi va muallif familiyasini yozadilar;

II sinfda unga nashr etilgan joyi va vaqti, kitobni o‘qigan vaqti;

III sinfda o‘qigan kitobga taqriz yozish yoki uning mazmuni haqida qisqa mulohaza yozish qo‘shiladi.

O‘quvchilarning o‘qigan kitoblari og‘zaki tarzda ham hisobga olinadi: ular o‘qigan kitoblari haqida sinfdan tashqari o‘qish va o‘qish darslarida, individual suhbatda gapirib beradilar.

II sinfdan boshlab kitobxonlik ishlarini tashkil etishga o‘quvchilarning o‘zlari ham jalb etiladi. Bunday topshiriqlarga sinf kutubxonasini tashkil etish va boyitish, ommaviy ishlarni tayyorlashda qatnashish, sinf jamoasiga o‘zaro yordam va bajarilgan ishlarni o‘zaro tekshirish, ko‘rgazma va montaj tayyorlash, kutubxonada kitoblarni yamashda qatnashish kabilar kiradi. Bolalarni kitobga

to'g'ri munosabatda bo'lish, uni ehtiyotlab saqlashga o'rgatish maktabning muhim vazifasidir.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining turlari.

Maktab bolalarni o'qish malakasi bilan birga, kitobni mustaqil o'qiy oladigan uni tushunadigan, muntazam o'qib borishni talab qiladigan, ma'lum bir mavzuga doir kitoblarni tanlay oladigan, faqat qiziqarli kitoblarnigina emas, balki gazeta va jurnallarni ham o'qiy oladigan faol kitobxonni tarbiyalashi lozim.

Sinfdan tashqari o'qish tarbiyaning ajoyib quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p narsani bilishga havasini orttiradi. Sinfdan tashqari o'qish darslarining xususiyatlari, birinchidan, sinfdan tashqari o'qish tizimi bosqichlari bilan, ikkinchidan, o'qituvchi oldiga qo'yiladigan tarbiyaviy vazifalari ya'ni axboroti bilan, uchinchidan, o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi.

1-sinfda o'quv yilining birinchi yarmida tayyorlov bosqichida yangi matnni o'qituvchi o'qib beradi: ikki-uch boshlang'ich bosqichdagi sinfdan tashqari o'qish darslarida yangi kichik hajmli kitobni o'zlari o'qiydilar, ammo bu vaqtda o'quvchilarda mustaqil o'qish malakasi hali o'smagan bo'ladi.

Tayyorlov bosqichida o'tkaziladigan 20 minutlik sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotida 5-6 minutda o'qishga mo'ljallangan qiziqarli hikoya, ertak, she'rlar tanlanadi: o'qilganlar yuzasidan suhbat, mazmunini qayta hikoya qilish, kitob muqovasini, rasmlarni ko'rishga ham vaqt ajratiladi.

Boshlang'ich bosqichda sinfdagi barcha o'quvchilarni bir xil kitob bilan ta'minlash talab etiladi. Bu qiyin masala bo'lishiga qaramay, sinfdan tashqari o'qish darsida muvaffaqiyatga erishish uchun o'quvchilarning hammasi bitta matn ustida ishlashlari zarur.

1-sinfda o'tkaziladigan sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qituvchi hikoyacha, yoki she'rni o'qib beradi, so'ng o'quvchilarning oldin o'qigan asarlari yuzasidan suhbat o'tkaziladi, qisqa umumlashtiradi, kitob muallifi bilan tanishtiradi. Keyin o'quvchilar yangi kitob bilan tanishadilar va uni o'zlari mustaqil ichda o'qiydilar: suhbat o'tkaziladi.

Boshlang'ich bosqich davomida sinfdan tashqari o'qish bir necha marta bir xil mavzu bo'yicha yoki bir muallif yozgan kitoblar bo'yicha tashkil qilinadi.

Albom tayyorlanadi, tanlov o'tkazilib, sinf kutubxonasi tashkil qilinadi. Yordamchi vosita sifatida 2-3 darsda videofilm yoki audio yozuvdan parcha ko'rsatiladi: 3-4 dars musiqa eshittirish bilan, 4-5 dars o'qilganlarga rasmlar chizish bilan o'tadi. Har bir sinfdan tashqari o'qish darslarida kitobning muqovasi, nomi va rasmlariga qarab unda taxminan nima haqida yozilgani mashq qilinadi.

Boshlang'ich bosqichda bolalar hali yaxshi o'qiy olmaydilar, natijada o'qiganlarini idrok etish qiyin bo'ladi. Shuning uchun darsni qiziqarli, hayajonli o'tishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish uchun o'qituvchi hikoya, ertak yoki she'rni ifodali, jonli o'qib berishga puxta tayyorlanishi, o'quvchilarni sinfda o'qib berishga tayyorlashi, rasmlar chizdirishdan, rollarga bo'lib o'qish singari ishni jonlantiradigan vositalardan foydalanishi zarur.

Bu bosqichda o'qilganlarga munosabat bildirishga o'rgatib boriladi. Bolalarda faraz qilish, talaffuz etish qobiliyati kuchli bo'ladi, qayta hikoya qilishda ular qahramonlar roliga kiradilar, ularga taqlid qiladilar. Darslarni tashkil etishda bularning hammasi hisobga olinishi zarur.

Boshlang'ich bosqichda "Ertaklar bayrami" mavzusida o'tkaziladigan sinfdan tashqari dars variantini keltiramiz. Bu dars ikki hafta oldindan boshlanib, bir guruh o'quvchilar kitob, ertak ko'rgazmasi tayyorlaydilar. Bu ko'rgazmaga o'quvchilarning o'zlari to'qigan ertaklari ham qo'yiladi. Bolalar ertaklarga rasmlar ham chizadilar. "Ertaklar bayrami"ga 1-sinf o'quvchilarining har biri o'zining ertak kitobini olib keladi. "Ertaklar bayrami" darsni yuqori ruhdagi barcha ishlarning ijodiy yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Uchinchi asosiy bosqichda o'tkaziladigan sinfdan tashqari o'qish darslari II sinfda hafta davomida, III sinfda esa ikki hafta davomida o'qiganlarini yakunlashga, xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Bu bosqichda bolalar o'qib kelgan kitoblar hajmi anchagina katta bo'ladi.

Bolalar o‘qib kelgan kitoblarda ayrim parchalar tanlab o‘qiladi, tahlil qilinadi, o‘qilganlarning hammasi umumlashtiriladi, muhokama qilinadi va hokazo.

Boshqacha qilib aytganda, bu bosqichdagi sinfdan tashqari o‘qish darslari umumlashtiruvchi xarakterda bo‘ladi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida taniqli bolalar yozuvchilari mualliflariga alohida ahamiyat beriladi. “G‘uncha”, “Gulxan”, “Bilimdon”, “Erkatoy” jurnallari va “Tong yulduzi”, “Nurli kelajak” gazetasi bilan tanishtirishga bag‘ishlangan alohida darslar o‘tkaziladi.

Bir yillik sinfdan tashqari o‘qish darslarini rejalashtirishda ayrim yozuvchi va shoirlar (Q.Muhammadiy, P.Mo‘min, Z.Diyor, A.Navoiy, S.Barnoev, K.Hikmat, Tursunboy Adashboev) ijodiga 7-8 dars; Vatan, istiqlol va mustaqil O‘zbekiston tarixiga oid muhim voqealar, o‘zbek xalqining buyuk arboblari haqidagi mavzularga 4-5 dars; xalq ertaklari va yozuvchilar yozgan ertaklariga 2-3 dars bag‘ishlanadi.

O‘quvchilarning o‘zlari erkin ravishda tanlagan sevimli kitoblari uchun 2-3 dars, tabiat, hayvonlar haqidagi kitoblarga 3-4 dars, hozirgi zamon fani, texnikasi, kishilar mehnati haqidagi kitoblarga 4-5 dars, axloqiy muammoga 5-6 dars bag‘ishlanadi. O‘quv yili boshida yozda o‘qigan kitoblar yuzasidan hisobot darsi o‘tkaziladi. Bir necha darsda hazilomuz (yumoristik) masallar o‘qiladi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida ikkinchi sinf o‘quvchilarining aqliy faolligini orttirish ko‘zda tutiladi. Bu darslarda o‘qilgan kitobning qayta hikoyalash, rollarni obrazli qilish, rasmlar chizish, ifodali o‘qish, kitob tavsiya qilish usullari keng qo‘llaniladi.

Uchinchi sinfdan bolalarni yozuvchilar ijodi bilan chuqurroq tanishtiriladi. O‘quvchilar mumtoz yozuvchilar asarlari bilan(A.Navoiy, Gulxaniy, A.Avloniy va boshqalar ijodi bilan) ham tanishadilar.

2-sinfdan Q.Muhammadiyning bolalar uchun yozgan kitoblari mavzusidagi sinfdan tashqari o‘qish darsi yo‘nalishini misol keltiramiz. Bu darsga tayyorgarlik bir oy oldindan boshlanadi. O‘qituvchi yozuvchining ba’zi kitoblarini tavsiya qiladi, kutubxonada bu kitob sinf o‘quvchilariga yetarli yoki yetarli emasligini

aniqlaydi, vaqti-vaqti bilan o'quvchilardan nimani va qanday o'qiganliklarini so'rab turadi. Bu darsdan bir hafta oldin bir guruh o'quvchilar Q.Muhammadiy kitoblari ko'rgazmasini tayyorlaydilar, uning suratini topadilar, kitoblardagi qahramonlarni tasvirlab rasm chizadilar, shuningdek 4-5 ta she'rini darsda yoddan o'qish uchun tayyorlaydilar. Bu dars tuzilishi quyidagicha bo'ladi:

1. Quddus Muhammadiyning "Qo'y keladi, qo'zi bilan" she'rini guruh bo'lib o'qish yoki ashula qilib aytish bilan boshlanadi, so'ngra 8-10 o'quvchi Q.Muhammadiy kitoblaridan o'quvchilarga ko'rsatadilar, uning nomini va kitobning nima haqidaligini aytadilar.
2. Alohida tayyorlangan o'quvchilar Q.Muhammadiyning satirik va yumoristik she'rlaridan o'qiydilar.
3. Yakushyuvchi suhbat Q. Muhammadiy asarlarining mavzusi va janriga ko'ra turi haqida so'zlanadi.

III sinfda sinfdan tashqari o'qish darslari tizimi istiqbolli bo'lishi zarur, ya'ni unda IV sinfdagi o'qishga qo'yiladi. Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mustaqil o'qishini uyushtirish tizimi ularni faol adabiyotni sevuvchi kitobxonlar sifatida tarbiyalanishiga yordam beradi. Bu tizim kitob, gazeta, jurnal o'qishig ehtiyoj uyg'otish vazifasiga bo'ysunadi, chunki ilmiy texnika inqilobi asrida har bir kishi o'z ustida ishlashga, bilimlarini mustaqil egallashga tayyor bo'lishi zarur. U har tomonlama kitobxon bo'lishi badiiy adabiyotni ham, siyosiy adabiyotni ham, ilmiy adabiyotni tushunish, farqiga yetishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinflarning dastlabki yillarida harflarni o'rganib, so'zlar va gaplar tuzishni o'rganadilar. O'qish jarayonida ravon va tushuntirib o'qish kabi bilim va ko'nikmalarini hosil qiladilar. 3-4 sinflarga o'tganda o'quvchilarni o'qishga oid ko'nikma va malakalari yanada takomillashadi. O'qish darslarida bolaga asarning mohiyatini to'la va oddiy qilib tushuntirish muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning nutqini rivojlantirishda o'qituvchining nutq madaniyatini yaxshi egallaganligi katta ahamiyatni kasb etadi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchisi

adabiy til me'yorlariga rioya qilishi o'z nutqiga e'tiborli bo'lishi sof va yoqimli ohangda gapirishi, o'quvchilarga alohida ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi o'z nutqini o'quvchilarga qanday ta'sir qilayotganini bilishi kerak.

O'quvchilarning darsda faol qatnashishilari yoki buning aksini o'qituvchi nutqi orqali ma'lumotlardan bilish mumkin, chunki o'qituvchining so'zamolligi, notiqligi darsning samarali chiqishini ta'minlaydi.

O'qituvchi dars davomida murakkab jumalardan yoki qiyin iboralardan imkoniyat darajasida foydalanmasligi kerak bo'ladi.

O'qituvchining samimiy, yoqimli nutqiy bolalarni o'ziga yakinlashtiradi, darsga qiziqishlarini ortiradi, dunyoqarashining kengaytiradi.

O'qituvchi nutqidan ozuqa olgan bolalar gap tuzish jarayonida u ishlatgan so'zlarni qo'llashga harakat qiladilar bolalar nutqini o'stirish yuksak e'tiqodli, ma'naviy yetuk har bir ishga mas'uliyat bilan yondashadigan qilib tarbiyalashda, barchaga o'z fikrlarini to'la va tushunarli qilib yetkazishlarini ta'minlaydi.

O'quvchining so'zlash jarayonida topshirilgan yumushlarni to'la eslab qolish va uning tushunarli qilib yetkazish muhim ahamiyatga egadir.

Bolalar nutqini o'stirishda ifodali o'qish, qayta hikoya qilish o'xshatmalar asosida so'zlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Darslarda o'quvchilarning so'zlab va faol qatnashishi va pedagogik mahoratiga bog'liq. Nutqida nuqsoni bor o'quvchilar bilan ishlashda nutq o'rganlarini muvlofiqlashtiruvchi mashqlarini tartibli bajarib borish, bir necha bor takrorlashlar orqali bu amalga oshirilishini ta'minlashdan iboratdir.

O'quvchilarning o'zlari mustaqil gapirishlari, hikoyalarning mazmunini gapira olishlari uchun sharoit yaratilishi lozim. Bu usullar orqali kam gapiradigan, yoki past ovozda so'zlaydigan o'quvchilarning ham tinglashga muvaffaq bo'linadi. Voqea va hodisalarning ko'rib eslab qolish yoki tasavvurdagi xolatni bayon eta olish o'quvchining so'z boyligiga bog'liq bo'ladi. Matnlarni ta'sirli o'qish yoki rollarga munosib tarzda o'qish bolalarda ko'proq eslab qolishga sabab bo'ladi va uzoq vaqt xotirada saqlanib qoladi. O'qish darslariga qo'yilgan talablar bir biriga uzviy bog'liqdir. Agar bolalar ongli ravishda o'qishga o'rganmasalar,

ifodali o'qishni o'zlashtira olmaydilar. Ravon va tushunarli o'qimasalar, o'qish tezligini oshirib bo'lmaydi. Ovoz chiqarib o'qish orqali ba'zi o'quvchilar matnni o'qish jarayonida yodlab oladilar. Matnni tushunarli qilib o'qish orqali o'quvchi to'la so'zlab berishi mumkin bo'ladi. Ichda o'qish malakalari asosan alifbedan keyingi davriga to'g'ri keladi, lekin ichda o'qish bolalarga ancha zerikarli hisoblanadi. Odatda, bolalar hamisha yaxshi ishlarga taqlid qilib faqat yaxshi sifatlarga ega bo'lgan qahramonlar ishini gapirishga intiladilar, yomonlikni ham yaxshilik tomonga burish mumkinligini oddiy so'zlar asosida tushuntirish kerak bo'ladi. Nuqt o'stirish bolalarni bayon, insho, hikoyalar yozishga tayyorlaydi. Fikrlarni yozma bayon etish uchun bolalar ma'lum so'z boyligiga ega bo'lishi va bu so'zlarni to'g'ri yoza bilishlari kerak bo'ladi. Rasmlarga qarab buni bayon etish ham o'quvchidan so'z boyligini va nutqini ravonligini talab etadi.

Ta'limning maqsadi - o'quvchilarga ma'lum darajada bilim va malakalarini singdirishdan iborat bo'lsa, tarbiyaning maqsadi bolalarni hayot bilan tanishtirish, unda faoliyat yurituvchi mustaqil inson sifatida tarbiyalashdir.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar o'qituvchi raxbarligida ishlaganda tez o'rganadilar. Bu holda o'rganib qolmasliklari uchun ko'proq ularning mustaqil o'ylashga, ishlashga, gapirishga da'vat etilaverishlari lozim. Bola yozishdan oldin o'ylaydi, bularning nutq orqali ham ifodalashi mumkin. Ularni rag'batlantirib borish, o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Kichik yoshdagi bolalarda ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mas'uliyatni his etish kuchli bo'ladi. Agar ularga biror ish buyurildimi uni imkon qadar tez bajarishga intiladilar. Shularni hisobga olgan holda, o'qituvchi dars davomida ularning imkoniyatlaridan to'la foydalanishi mumkin.

Ma'lumki, hozirgi zamonaviy darslarga qo'yiladigan talablar ancha murakkab. Lekin, darsni ko'plab uslublar asosida tashkillash darsning asl mohiyatini olib ketishiga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy pedagoglardan talab qilinadigan dars, oddiy, mukammal, qo'lda yasalgan yangi yangi ko'rgazmalar asosida o'quvchilarni mustaqil fikrlab bayon eta oladigan darajada test va savolliklardan tashkil topsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir// O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi// -T.: Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 2014 yil
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.//O‘zbekiston Respublikasi I.A.Karimov tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so‘zlangan nutqi - T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997, – 19-b.
3. Karimov I.A. Biz o‘z kelajagimizni qurmoqdamiz.//O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Turkiston - Press” axborot agentligi muxbiri savollariga bergan javoblari.// - T.: O‘zbekiston, 1999- 410-b.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura (Nutqlar, maqolalar, suhbatlar).-T.: O‘zbekiston, 1993-364-b.
5. Karimov I.A. “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent. Ma‘naviyat 2008 yil.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni.//Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori// T.: Sharq nashriyot-matbaa konetserni, 1997, 20-29-b.
7. I.A.Karimov . “O‘zbekiston buyuk kelajak sari”. T., O‘zbekiston, 1998 yil.
8. I.A.Karimov . “Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T., Sharq. 1999 yil.
9. Ta‘lim taraqqiyoti. (Umumiy o‘rta ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Boshlang‘ich ta‘lim. Ona tili dasturi.) T., Sharq 1999 yil.
10. Boshlang‘ich ta‘lim bo‘yicha yangi taxrirdagi Davlat ta‘lim standarti. T., “Boshlang‘ich ta‘lim”, 2005 yil. 5- soni.
11. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T., 1998 yil.

12. O‘zbek maktablarida ona tili ta’limi Konsepsiya. “Til va adabiyot” ta’limi jurnali, 1994 yil 1-2-son.
13. Abdullaeva Q. va boshqalar. “O‘qish kitobi” 2-sinf “O‘qituvchi ” 2015-yil.
14. Safarova R. va boshqalar. “Alifbe”, T., “Ma’naviyat”, 2015-yil.
15. Safarova R., G‘ulomov M. Va Inoyatova M. “Savod o‘rgatish darslari. O‘qituvchi kitobi”, T., “Tafakkur”, 2012-yil.
16. Abdullaeva Q. va boshqalar. Savod o‘rgatish darslari. T., “O‘qituvchi ”, 1996 yil.
17. G‘afforova T., G‘ulomova X. O‘qish darslari. T., “Tafakkur”, 2011-yil.
18. Abdullaeva K. Diktantlar to‘plami. To‘rt yillik boshlang‘ich maktablar uchun. T., “O‘qituvchi ”, 1997-yil.
19. Boshlang‘ich sinflarning darsliklari. Sharafiddinov O., Abdullaeva Q. va boshqalar. “Alifbe” (“Shodlik”); “Ona tili” (“Gulshan”). T. “O‘qituvchi ”, 1999-yil
20. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o‘stirishdan tarqatma materiallar. T., “O‘qituvchi ”, 1993-yil.
21. Maqulova B. va boshqalar. Sinfdan tashhari o‘qish mashg‘ulotlari. T., “O‘qituvchi ”, 1996-yil.
22. Umarova M., Xudoyberganov M. Bayonlar to‘plami. T. “O‘qituvchi ”, 1992.
23. Uzviylashtirilgan davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. T. 2010-yil
24. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. T., TDPU. 2008-yil.
25. www.pedagog.uz
26. www.ziyo.net.uz
27. www.kitob.uz